



**Xizmat tekshiruvi: Xodim va ish beruvchi o'rtasidagi
mehnat intizomini mustahkamlash vositasi sifatida**

Ozodov Inoyatullo Alisher o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

inoyatullo007@gmail.com

Jurakulova Rushana Sharofovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

ORCID 0009-0007-6706-0592

jurakulovarushana74@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehnat munosabatlari doirasida o'tkaziladigan xizmat tekshiruvi instituti yoritib beriladi. Xizmat tekshiruvi ish beruvchilar va xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, mehnat intizomini mustahkamlash hamda ish joyida qoidabuzarliklarni va unga sabab bo'ladigan shart-sharoitlarni samarali hal qilish uchun muhim jarayon hisoblanadi.

Quyida ushbu jarayonning milliy va chet el mamlakatlari qonunchiliklariga muvofiq tartibi tushuntirilgan bo'lib, bunda milliy va xorijiy qonunchilik manbalari o'rganib



chiqilib, qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanilgan. Maqolada, shuningdek, xizmat tekshiruvini o'tkazishni belgilovchi amaldagi qonun normalarida mavjud bo'lgan kamchiliklar ham ko'rsatib o'tilib, takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: xizmat tekshiruvi, intizomiy javobgarlik, tekshiruv komissiyasi, mehnat qonunchiligi, mehnat shartnomasi.

Abstract: This article describes the institute of workplace investigation conducted within the framework of labor relations. Workplace investigation is an important process for protecting the rights and interests of employers and employees, strengthening labor discipline, and effectively resolving workplace violations and the conditions that lead to them.

The order of this process according to national and foreign laws is explained below, in which national and foreign legal sources were studied and comparative-analytical methods were used. The article also points out the deficiencies in the current legal norms that determine the conduct of workplace investigations and makes suggestions.

Key words: workplace investigation, disciplinary responsibility, inspection commission, labor law, labor contract.

Аннотация: В статье рассматривается институт расследования на рабочем месте, проводимого в рамках трудовых отношений. Расследование на рабочем месте является важным процессом для защиты прав и интересов работодателей и работников, укрепления трудовой дисциплины и эффективного разрешения нарушений на рабочем месте и условий, способствующих их возникновению.



Процесс проведения расследования на рабочем месте в соответствии с национальным и международным законодательством объясняется ниже, при этом были изучены национальные и международные правовые источники, использованы сравнительно-аналитические методы. В статье также выделены недостатки в текущих юридических нормах, регулирующих проведение расследований на рабочем месте, и представлены предложения по их улучшению.

Ключевые слова: расследование на рабочем месте, дисциплинарная ответственность, комиссия по проверке, трудовое право, трудовой договор.

KIRISH

Mehnat qonunchiligi har bir xodim va ish beruvchining huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi muhim huquqiy asos hisoblanadi. Ushbu qonunchilik normalari mehnat sharoitlarini tartibga solish, xodimlarning huquqlarini himoya qilish va mehnat nizolarini oldini olishga qaratilgan. Biroq, amaliyotda mehnat qonunchiligiga rioya etilmagan holatlar uchrab turadi, bu esa xodimlarning huquqlari buzilishiga va tashkilot ichida mehnat intizomi buzilishiga olib kelishi mumkin.

Xizmat tekshiruvi mehnat qonunchiligi buzilishining oldini olish va uni aniqlash vositalaridan biri bo'lib, tashkilot ichida mehnat intizomi va huquqiy normalarga rioya etilishini nazorat qilishga yordam beradi. Ushbu tekshiruvning samarali o'tkazilishi mehnat munosabatlarini tartibga solish, xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va mehnat muhitini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.



METODOLOGIYA:

Ushbu maqolada mehnat qonunchiligi bo'yicha xizmat tekshiruvining mohiyati, uning o'tkazilish tartibi va natijaviyligi tahlil qilinadi. Shuningdek, xizmat tekshiruvi natijalarining mehnat munosabatlariga ta'siri va ularning qonuniy jihatlari ham ko'rib chiqiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Xodimga nisbatan xizmat tekshiruvi xodim tomonidan mehnat intizomi buzilganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lgan holda o'tkazilinadi. Mehnat intizomi deganda, mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, jamoa shartnomalari, jamoa kelishuvlari va boshqa ichki mehnat hujjatlariga barcha xodimlarning majburiy bo'ysunishi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 302-moddasida, xizmat tekshiruvi xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilganligi faktini, uning sodir etilishida xodimning aybini, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, ish beruvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararining xususiyati va miqdorini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tekshirish ekanligi belgilangan.¹ [28.10.2022-yil O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 302-modda. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.] Demak, xizmat tekshiruvi xodim intizomiy qilmishni sodir etgan vaqtda o'tkazilinar ekan. Intizomiy qilmish deganda, xodim tomonidan mehnat majburiyatlari aybli tarzda, g'ayriqonuniy ravishda bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi tushiniladi.² [28.10.2022-yil O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 302-modda. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.] Demak, intizomiy qilmish mehnat intizomini buzish va mehnat majburiyatlarining

¹ O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 302-modda. 28.10.2022-yil. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

² O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 301-modda. 28.10.2022-yil. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.



bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi natijasida yuzaga keladi, xizmat tekshiruvi esa xodimning shu intizomiy qilmishni sodir etganmi yoki yo'qligini va bunga nimalar sabab bo'lganligini aniqlashtirib beradigan tekshiruv hisoblanadi. Xizmat tekshiruvini o'tkazish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun ish beruvchi tomonidan qaror qabul qilinishi va bu qaror buyruq bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi qarorni qabul qilish uchun :

- ommaviy axborot vositalarining xabarlar;
- xodimning bevosita rahbarining bildirgisi;
- jismoniy va yuridik yaxshlarning murojaatlari;
- va xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgan deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan boshqa asosli ma'lumotlar asos bo'ladi.

Xizmat tekshiruvini, bevosita xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgan yoki yo'q degan tahminlardan birini tasdiqlab beruvchi tekshiruv desak mubolag'a bo'lmaydi. Ish beruvchi har doim ham xizmat tekshiruvini o'tkazishi shart hisoblanmaydi, agarda xodimning intizomiy qilmish qilganlik fakti aniq bo'lsa, ish beruvchi xizmat tekshiruvini o'tkazmay turib ham intizomiy jazoni xodimga nisbatan qo'llashi mumkin bo'ladi.

2. Xizmat tekshiruvini o'tkazish bo'yicha komissiya tashkil etiladi va bu komissiyaning tashkil etilishiga ish beruvchining buyrug'i asos bo'ladi. Buyruq va komissiya a'zolari bilan xodim imzo qo'ydirib tanishtirilishi kerak.

Xizmat tekshiruvini o'tkazish komissiyasi 3 nafar a'zodan iborat bo'lishi lozim va unga tashkilotda mavjud bo'lsa kasaba uyushmasi qo'mitasi a'zosi kiradi. Xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan mansabdor shaxs, harakatlari tekshirilishi zarur bo'lgan xodimlar bo'ysunuvidagi xodimlar, o'ziga nisbatan xizmat



tekshiruvni o'tkazilayotgan xodim bilan qarindoshlik aloqalarida bo'lgan shaxslar, xizmat tekshiruvni natijalaridan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar, shu jumladan xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga yoki intizomiy qilmishning yashirilishiga daxldor ekanligi to'g'risida asoslangan gumonlar mavjud bo'lgan shaxslar, murojaati xizmat tekshiruvni o'tkazilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan shaxslar, o'ziga nisbatan xizmat tekshiruvni o'tkazilayotgan xodimlar komissiya tarkibiga kirishi mumkin emas. Agarda ushbu holatlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda komissiya a'zosi o'zini o'zi rad etishi lozim yoki xodim komissiya a'zosini rad etish bo'yicha ariza bilan ish beruvchiga murojaat etishi mumkin. Shu o'rinda bir jihatga e'tiborimizni qaratib o'tsak, xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risida ish beruvchining o'zi buyruq bilan rasmiylashtirilgan qaror chiqarsa va komissiya ham shu buyruq asosida shakllantirilsa, o'z navbatida ish beruvchi yana komissiya a'zosini rad etish to'g'risidagi arizani ham o'zi ko'rib chiqishi manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'lmaydimi degan savol vujudga keladi?

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 307-moddasi 5-qismiga e'tibor beradigan bo'lsak, xizmat tekshiruvini o'tkazuvchi komissiyaning a'zosi rad etilganda uning yangi a'zosini ish beruvchi tayinlashini ko'rishimiz mumkin, shuningdek, ushbu moddaning 3-qismida komissiya a'zosini rad etish to'g'risidagi ariza xizmat tekshiruvni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan ish beruvchiga beriladi. Rad etish haqidagi arizaga doir qarorni xizmat tekshiruvni o'tkazishni tayinlagan mansabdor shaxs (organ) rad etish haqidagi ariza berilgan paytdan e'tiboran bir ish kunidan kechiktirmay qabul qilishi kerak. Ushbu qaror qabul qilingan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay xodim va komissiya a'zolari e'tiboriga yetkazilishi kerakligi belgilangan.³ [28.10.2022-yil O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 302-modda. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.] Shunday ekan qaysidur ma'noda ushbu holatda xolislik masalasi shubha ostida

³ O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 307-modda. 28.10.2022-yil. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.



qoladi. Shu o'rinda xorijiy davlatlarning amaliyotiga ham o'z e'tiborimizni qaratib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Germaniyada xizmat tekshiruvi tizimi xodimlarning huquqlarini himoya qilishga va ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Bu tizimning asosiy ustunligi – xizmat tekshiruvi mustaqil organlar tomonidan o'tkazilishi va xodimlar kengashining faol ishtirok etishidir. Germaniyada “Betriebsrat” (Xodimlar kengashi) instituti va davlat nazorati ushbu sohada kuchli hisoblanadi. Har qanday xizmat tekshiruvi xodimlar kengashi bilan kelishilgan holda o'tkazilinadi va xodimlar kengashi ushbu tekshiruvga o'z vakillarini kiritishi shart hisoblanadi, shuningdek, agar tekshiruv jiddiy qonunbuzarlik bilan bog'liq bo'lsa, Germaniyada xizmat tekshiruvini o'tkazish bo'yicha komissiya tarkibiga mustaqil auditorlar yoki davlat mehnat inspeksiyasidan ham vakillar kiritilinadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 304-moddasiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, komissiya a'zolariga agar tashkilotda kasaba uyushmasi qo'mitasi mavjud bo'lganda uning a'zosi kirishi mumkinligi belgilangan. Demak, ushbu holatda xodimlar manfaatini ifoda etuvchi kasaba uyushmalari qo'mitasi tashkilotda mavjud bo'lmasa komissiya a'zolarida xodimlarning manfaatini kim ifoda etadi degan masala yuzaga chiqadi. Germaniya qonunchiligiga ko'ra agarda tashkilotlarda kasaba uyushmalari (Gewerkschaft) bo'lmasa ham besh va undan ortiq xodimga ega kompaniyalarda xodimlar kengashi tuzish huquqi bor, katta korxonalarda xodimlar kengashi (Betriebsrat) bo'lishi majburiy hisoblanadi.⁴ [<https://www.gesetze-im-internet.de/betrvg/>]

3. Xizmat tekshiruvining o'tkazish muddati o'n besh ish kunidan oshmasligi kerak, xizmat tekshiruvini obyektiv sabablarga ko'ra tugallash mumkin bo'lmagan alohida hollarda, ish beruvchi komissiyaning asoslantirilgan vajlari asosida xizmat tekshiruvini o'tkazish muddatini yana o'n besh ish kunigacha uzaytirishga haqli bo'ladi.

⁴ <https://www.gesetze-im-internet.de/betrvg/>



4. Agar xodimning ish joyida hozir bo'lishi xizmat tekshiruviga xalaqit berishi mumkin deb taxmin qilish uchun asosli sabablar mavjud bo'lsa, ish beruvchi xodimni ishdan chetlashtirishga haqli. Xodimni ishdan chetlashtirish ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Bu buyruq bilan xodim imzo qo'ydirilib tanishtirishi kerak. Ishdan chetlashtirish muddati xizmat tekshiruvi muddatidan oshib ketmasligi kerak.

5. Xizmat tekshiruvi natijalari bo'yicha xizmat tekshiruvini o'tkazuvchi komissiya xizmat tekshiruvining so'nggi natijasi bo'yicha dalolatnomani tuzadi. Dalolatnoma har bir komissiya a'zosi tomonidan imzolanishi kerak. Dalolatnomaning yakunlovchi qismida xizmat tekshiruvi bo'yicha komissiyaning xulosasi bayon etiladi. Unda shuningdek, takliflar ham aks ettiriladi. Masalan, xodim intizomiy qilmishni sodir etganligi va unga qaysi turdagi intizomiy jazo qo'llanilishi haqida ish beruvchiga takliflar, shuningdek, ushbu qilmishning yuzaga kelishiga sabablar va ularni bartaraf etish va mehnat intizomini yanada mustahkamlash borasida ham takliflar aks ettiriladi.

1-jadval: Xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun amalga oshiriladigan bosqichlar:

XIZMAT TEKSHIRUVINI O'TKAZISH QANDAY AMALGA OSHIRILADI :
1-bosqich: Xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun asoslar bor deb taxmin qilinganda ish beruvchi qaror chiqaradi va buni buyruq bilan rasmiylashtiradi
2-bosiqch: Xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun komissiyani shakllantirish
3-bosiqch: Xizmat tekshiruvi uchun asos bo'lgan buyruq bilan va komissiya a'zolari bilan xodim imzo qo'yib tanishtirilishi
4-bosqich: Xizmat tekshiruvini o'tkazish
5-bosqich: Xizmat tekshiruvining natijasini dalolatnoma asosida rasmiylashtirish



6-bosqich: Xizmat tekshiruvi dalolatnomasi va boshqa materiallar uch ish kunida ish beruvchiga topshirilishi
7-bosqich: Xizmat tekshiruvi natijasiga ko'ra intizomiy jazo qo'llanilishi yoki aksincha

Endi esa bir qator chet davlatlari qonunchiligiga muvofiq xizmat tekshiruvi jarayoni qanday o'tkazilishi, ularning o'zaro va milliy qonunchiligimizdan farqli jihatlarini yoritib o'tamiz.

Amerika Qo'shma Shtatlarida xizmat tekshiruvini o'tkazishni qat'iy tartibga soluvchi federal qonun mavjud emas. Ushbu jarayon odatda shtat qonunlari hamda ichki mehnat tartib-qoidalarini tartibga soluvchi hujjatlar bilan tartibga solinadi. Tashkilotlarda xizmat tekshiruvini o'tkazish bo'yicha mas'ul xodimlar HR (Human Resources) bo'limi vakillari, tashkilotning yuridik bo'limi vakillari, ichki nazorat yoki audit bo'limi vakillari, shuningdek xodimlar vakillari, ya'ni, kasaba uyushmasi (Trade Union) bo'lib, tekshirish bo'yicha komissiya ham aynan ulardan iborat bo'ladi. AQShda xizmat tekshiruvi ko'pincha HR bo'limi va yuridik bo'lim xodimlari tomonidan olib boriladi. Masalan, 2017-yilda Google kompaniyasida ishlab keltgan muhandis Antoniy Levandovski kompaniyaning maxfiy avtonom haydovchilik texnologiyasi hujjatlarini yuklab olib, o'zining yangi biznesida foydalanishga harakat qilgan. Ushbu holat bo'yicha Waymo(Googlening avtonom haydovchilik bo'limi) ichki xavfsizlik bo'limi va yuridik bo'limi xodimlari tomonidan xizmat tekshiruvi o'tkazilib, yakunda Levandovskiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilishi bilan tugagan⁵. [<https://www.digitalguardian.com/blog/engineer-behind-google-uber-trade-secret-theft-case-sentenced>]

⁵ <https://www.digitalguardian.com/blog/engineer-behind-google-uber-trade-secret-theft-case-sentenced>



AQSh mehnat qonunchiligida “at will employment” (xohishiy ishga joylashuv) prinsipining mavjudligi ko’p hollarda xizmat tekshiruvini tezroq hal qilishga, ba’zan esa unga zarurat qoldirmaslikka xizmat qilishi mumkin. Ushbu prinsipga ko’ra ish beruvchi istalgan vaqtda xodim bilan mehnat shartnomasini hech qanday sababsiz bekor qilish huquqiga ega, ayrim holatlar(xodimda sog’lig’i bilan bog’liq muammo bo’lsa, xodimga nisbatan kamsitish holati kuzatilsa) bundan mustasno.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa xizmat tekshiruvi jarayonini o’tkazishda qonunchilik xodimlarning huquqlariga AQShga nisbatan ko’proq ahamiyat beriladi. Jumladan, xodimlarning shaxsiy ma’lumotlarini qo’riqlash shartligi belgilangan bo’lib, ular Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo’yicha Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti(General data protection reglament – GDPR) orqali himoya qilinadi. Shuningdek, xizmat tekshiruvini o’tkazishda kasaba uyushmalarining roli kuchli bo’lib, bu Yevropa davlatlarining o’z qonun hujjatlarida ham belgilangan. Xususan, Germaniyada “Mehnat munosabatlari to’g’risidagi qonun” (Betriebsverfassungsgesetz)ning 87 va 99-moddalarida ish beruvchi intizomiy masalalarni ko’rib chiqishda, xodimlarni ishga olish va bo’shatishda xodimlar kengashi bilan hamkorlik qilishi kerak ekanligi ta’kidlangan⁶.

Xitoy Xalq Respublikasida xizmat tekshiruvini o’tkazish tartibi “Mehnat to’g’risidagi qonun” (Labour Contract Law), “Kompaniyalar to’g’risidagi qonun” (Company Law), shuningdek “Audit to’g’risidagi qonun” (Audit Law) bilan tartibga solinadi. Xitoy markazlashgan rejali iqtisodiyotga asoslanganligi, sohalarda davlat nazoratining kuchli ekanligi bois xizmat tekshiruvlarini amalga oshirishda davlat organlarining roli kuchli sanaladi. Jumladan, XXRda bu bo’yicha alohida Audit vazirligi ham mavjud bo’lib, tekshiruvlar sohasida vakolatli organ bo’lib hisoblanadi.

⁶ <https://www.gesetze-im-internet.de/betrvg/>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmat tekshiruvi mehnat munosabatlarining muhim mexanizmlaridan biri bo'lib, uning shaffof va xolis o'tkazilishi xodimlarning huquqlarini himoya qilish va tashkilotning ichki intizomini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda xizmat tekshiruvi jarayoni odatda ish beruvchi tomonidan tashkil etilib, komissiya shakllantiriladi. Biroq, uning tarkibi va qaror qabul qilish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelmasligi lozim.

Xalqaro tajriba, jumladan, Germaniyaning xodimlar kengashi modeli, xizmat tekshiruvi jarayoniga xodimlar vakillarining jalb qilinishini ta'minlash orqali adolat va shaffoflikni oshirishi mumkinligini ko'rsatadi. O'zbekistonda kasaba uyushmalari mavjud bo'lmagan tashkilotlarda xodimlarning manfaatlarini himoya qilish uchun muqobil mexanizmlar, masalan, mustaqil xodimlar vakillari yoki davlat nazorat organlari ishtirokini oshirish lozim.

Xizmat tekshiruvining adolatli o'tishi mehnat munosabatlarining barqarorligini ta'minlab, ish muhitida ishonch va tartibni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, qonunchilik va amaliyotda ushbu jarayonni yanada takomillashtirish zarurati dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. 28.10.2022-yil. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
2. "Xizmat tekshiruvi maxsus intizomiy javobgarlik kategoriyasi sifatida" Ramazonov T.F
<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/10242/6728/6475>
3. <https://www.gesetze-im-internet.de/betrvg/>



4. <https://www.digitalguardian.com/blog/engineer-behind-google-uber-trade-secret-theft-case-sentenced>
5. <https://www.gesetze-im-internet.de/betrvg/>
6. Xizmat tekshiruvini o'tkazish tartibi: qonunchilik talablarining mohiyati va ahamiyati – Civil.uz <https://new.civil.uz/2024/12/31/xizmat-tekshiruvini-otkazish-tartibi-qonunchilik-talablarining-mohiyati-va-ahamiyati/>
7. “ Mehnat huquqi “ darslik. Mualliflar jamoasi Toshkent-2021
8. “ Mehnat huquqi” darslik. Mualliflar jamoasi. Press nashriyoti Toshkent-2022